

TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA TIJORAT BANKLARINING ROLI

Ilmiy rahbar: Andijon davlat texnika instituti

“Iqtisodiyot” kafedrası dotsenti

Abdumo‘minov Axrorjon Axatjonovich

Soyibjonov Sanjarbek

Andijon davlat texnika instituti

Iqtisodiyot yo‘nalishi 4-kurs talabasi

E-mail: sanjarbeksoyibjonov2003@gmail.com

Tel: +998(90) 220 03 86

Annotatsiya. Ushbu maqolada tijorat banklarining tadbirkorlikni rivojlantirishdagi o‘rni va ta‘siri atroflicha tahlil qilinadi. Tijorat banklari tomonidan taqdim etiladigan kreditlar, investitsiya xizmatlari, lizing va boshqa moliyaviy mahsulotlarning kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlashdagi ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Maqolada foiz stavkalari, kredit shartlari, moliyaviy mahsulotlarning mavjudligi va bank xizmatlarining raqobatbardoshlikka ta‘siri o‘rganiladi. Mahalliy va xalqaro bank tizimlarining tajribasi misollar orqali tahlil qilinib, tijorat banklarining innovatsiyalarni rag‘batlantirish va iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shishdagi roli ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: tijorat banklari, kreditlar, investitsiya xizmatlari, lizing, foiz stavkalari, kredit shartlari, moliyaviy mahsulotlar.

Kirish. Bozor iqtisodiyotiga o‘tilishi tufayli jamiyatda yangi moliyaviy siyosat ishlab chiqildi va hukumat tomonidan real hayotda amalga oshirilmoqda. Jamiyatdagi har bir iqtisodiy faoliyatni boshlanishi davlatning yaqindan turib bergan moliyaviy yordami tufayli rivojlanib, takomillashib borishi mumkin. Jumladan “Kichik va

xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish to'g'risida"gi 1995-yil 25-dekabrda qabul qilingan Qonunda kichik va xususiy tadbirkorlikni qo'llab quvvatlashda banklarni rolini oshirib borishga alohida e'tibor berilgan [1].

Kichik va xususiy tadbirkorlik korxonalarini asosiy faoliyati banklar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular olib borayotgan faoliyat xom-ashyoni sotib olish, ishlab chiqarilgan tovarlar, ko'rsatiladigan xizmatlarga haq to'lash, ish haqi bilan ishlovchilarni ta'minlash, turli toifadagi korxonalar, firmalar, yuridik shaxslar bilan bo'ladigan iqtisodiy munosabatlar ya'ni olingan foydadan, daromaddan soliq to'lash, transport, kommunal xizmatlar uchun to'lovlarning barcha turlari banklar orqali, o'z navbatida olinadigan kreditlar ham boshqa hisob-kitoblar ham banklar orqali amalga oshadi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, mamlakatimiz mustaqillikka erishguncha bank va banklar bilan bo'ladigan turli iqtisodiy munosabatlar unchalik oshkora etilmas edi. Jahon xo'jaligini muhim xo'jalik yuritish qismi bo'lgan kichik va xususiy tadbirkorlik korxonalarini barcha faoliyati banklar bilan bog'langanligi bugungi kunda hammaga ma'lum bo'lib qoldi [5]. Shuning uchun ham rivojlangan mamlakatlarda masalan, AQSHda bank tizimini faoliyati nihoyatda rivojlangan bo'lib, tadbirkorlarni aktiv iqtisodiy faoliyat ko'rsatishida banklar barcha mulk shaklidagi korxonalarga kompleks ravishda xizmat ko'rsatadi. Umuman bank operatsiyalari passiv va aktiv operatsiyalardan iborat bo'lib, passiv operatsiyalar pul mablag'larini ma'lum biror yo'nalishga safarbar etishga qaratilgan. Banklar passiv operatsiyalar orqali jamg'armalarni va vaqtinchalik bo'sh turgan mablag'larni ishlab chiqarishga safarbar etib foyda oladi. Tadbirkorlar bilan bank o'rtasidagi kredit bo'yicha bo'ladigan operatsiyalar ikki tomon o'rtasida imzolangan shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Operatsiyalarni muvaffaqiyatli bajarish uchun har bir tadbirkor "Banklar va bank faoliyati to'g'risidagi" Respublika qonunlarini chuqur o'rganib, unga rioya qilishi lozim. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarining asosiy qismini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektalri tashkil etadi. Chunki kichik korxonalar bozor sharoitiga tez moslashuvchan va kam xarajat talab qiladigan sektor hisoblanadi. Umuman bugungi kunda bozor iqtisodiyotining

muhim talabi –kam mehnat sarflangan holda, ko‘proq va sifatli mahsulot ishlab chiqarish, kishilarning talab va ehtiyojlarini to‘la qondirish va shu asosida foyda olishdan iborat. Bunda ishlab chiqarishni harakatlantiruvchi kuch tadbirkorlikdir. Respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarini qo‘llab-quvvatlash hamda ularning rivojlanishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan bo‘lib doimiy ravishda rag‘batlantirish va iqtisodiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash maqsadida, ularga turli xil soliqlardan ozod qilish hamda imtiyozli foiz stavkalarini qo‘llagan holda bank kreditlaridan foydalanish imkoniyatlari berilgan. Lekin ularni tashkil etish sur‘atlari, muttasil rivojlanib borishiumumiqtisodiy hayotdagi o‘rni bozor iqtisodiyotining talablariga hali to‘liq javob bera olmaydi. Bozorning narx-navo o‘zgarishiga ta’sirchanligi, ishlab chiqarilgan mahsulotlarning sifati pastligi va boshqa siyosiy-iqtisodiy muammolar mavjudligi kredit oluvchining moliyaviy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Mijoz va bank o‘rtasida imzolangan kredit shartnomalari har ikki tomon uchun majburiy hisoblanib, ularning o‘z muddatida, to‘liq bajarilishi talab etiladi. Lekin hozirgi paytda banklar kreditlarni qaytarib olishda muammolarga duch kelmoqda. Bu esa o‘z –o‘zidan muammolarning yanada ortishiga hamda “Muammoli kreditlar” yoki “Sud jarayonidagi ssudalar” hisob varog‘ida banklarning summalari ko‘payishiga, daromad keltiruvchi bank aktivlarining chetga tortilishiga olib keladi [2].

Hukumatimiz tomonidan respublikada muammoli kreditlar keskin ortib ketganligi sababli, Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 4 -dekabrda 422-sonli “Banklarning kreditlari bo‘yicha qarzdorlik o‘z vaqtida qaytarilmagan taqdirda undiruvni qarzdorning likvidli mol-mulkiga qaratish tartibini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq qarzdorning pul mablag‘lari yetarli bo‘lmagan taqdirda, bank kredit bo‘yicha qarzdorlikni qonuniy hujjatlarda belgilangan tartibda va natorial tasdiqlagan hamda yozma bitim asosida qarzdorning likvidli mol-mulki hisobiga yoki undiruvli mol-mulki hisobiga qarzni qaytarish yuzasidan o‘z mo‘ljali to‘g‘risida yozma ravishda bildirishnoma beradi [3]. Mijoz esa o‘z navbatida 15 kundan kechikmay, bankka yozma javob berishishart. Bunday vaziyatlarda ko‘plab banklar sudma-sud yurishga to‘g‘ri keladi .Chunki qarzdor o‘z qarzini qaytarishni kechiktirish yoki iloji bo‘lsa

umuman qaytarmaslik tarafdoridir. Agarda, muammoli kreditlarni undirish bo'yicha ish to'g'ri yo'lga qo'yilmasa, oqibatda, buni amalga oshirish uchun juda ko'p vaqt va mablag' talab etiladi. Hozirgi vaqtda yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash uchun qator imkoniyatlar taqdim etilmoqda. Ulardan biri –bu yoshlarning investitsion tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirish uchun taqdim etilayotgan imtiyozli kreditlar. Imtiyozli kreditlar yosh tadbirkorlarga barcha yo'nalishdagi investitsion loyihalar uchun ajratiladi: meva-sabzavot va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, saqlash va qadoqlash to'qimachilik, poyabzal va charm-galantereya-kimyo, farmasevtika; -oziq-ovqat; elektrotexnika sanoati, mashinasozlik, zamonaviy qurilish materiallari; -hunarmandchilik hamda axborot-kommunikasiya texnologiyalari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2022-yil 21-dekabr kuni "Tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonni imzoladi [4]. Prezidentimizning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi hamda mamlakatimiz rahbarining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan murojaatnomasida belgilangan vazifalarga muvofiq aholining hayot darajasini yanada yuksaltirish, ta'lim sifatini ilg'or xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, barqaror iqtisodiy o'sishga erishish hamda kambag'allikni qisqartirish borasidagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqishga oid farmon qabul qilindi. Jumladan, farmonda xalqimizning og'irini yengil qilish, aholi uchun qo'shimcha qulayliklar yaratish va ularning xarajatlarini tejash maqsadida, 2023 yil 1 iyuldan barcha davlat organlari va tashkilotlarida aholi va tadbirkorlarga servis sifatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlari belgilandi. Vazirlar va boshqa mustaqil ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlari 15 kun muddatda o'z tizimida masofadan turib, shu jumladan, mobil ilovalar orqali ko'rsatiladigan davlat xizmatlarini ko'paytirish, undiriladigan to'lovlar miqdorini kamaytirish, talab qilinadigan ortiqcha hujjatlarni bekor qilish, ko'rib chiqish jarayonlari va muddatlarini keskin qisqartirish, shaffoflikni oshirish, aholi va tadbirkorlar bilan doimiy muloqot maydonchalarini tashkil etish, xodimlarning muomala madaniyatini yuksaltirish, tezkor va sifatli xizmat ko'rsatishga o'qitish bo'yicha tadbirlar dasturini tasdiqlab,

aholi va tadbirkorlarga e'lon qilishi alohida belgilab o'tildi. Shuningdek, 2023-yil 1-sentyabrdan boshlab aholi va tadbirkorlik sub'ektlariga subsidiya ajratish bilan bog'liq barcha xizmatlar bosqichma-bosqich "Aholi va tadbirkorlik sub'ektlariga subsidiya ajratishning yagona elektron platforma" siga o'tkazilsin hamda subsidiyalarni ajratishning maqsadga muvofiqligini elektron platforma orqali onlayn tekshirish tizimini yo'lga qo'yish orqali subsidiyalar ajratish to'g'risidagi arizalarni Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali yoki istalgan tuman (shahar) davlat xizmatlari markazlari orqali topshirish imkoniyatini yaratish hamda ortiqcha byurokratik to'siqlar va boshqa korrupsiyaviy omillarni bartarafetishga oid aniq manzilli ishlar belgilab berildi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, tadbirkorlikni rivojlantirishda tijorat banklarining roli muhim ahamiyatga ega. Tijorat banklari tadbirkorlarga moliyaviy resurslar taqdim etish, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va biznes faoliyatini kengaytirish uchun zarur bo'lgan kreditlarni berish orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi. Ular shuningdek, tadbirkorlikni rivojlantirish uchun maslahat xizmatlari, bozor tahlili va moliyaviy rejalashtirish kabi qo'shimcha xizmatlar ko'rsatish orqali tadbirkorlarning muvaffaqiyatini oshirishda yordam beradi. Bundan tashqari, tijorat banklari innovatsion g'oyalarni amalga oshirishda ham muhim rol o'ynaydi, chunki ular yangi texnologiyalarni joriy etishga va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishga qaratilgan loyihalarni qo'llab-quvvatlaydilar. Shuningdek, banklar tadbirkorlik muhitini yaxshilash uchun raqobatbardosh sharoitlarni yaratishda ishtirok etadilar. Shunday qilib, tijorat banklarining faoliyati tadbirkorlikni rivojlantirishda nafaqat moliyaviy qo'llab-quvvatlash, balki ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda ham muhim ahamiyatga ega. Ularning samarali ishlashi mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlashga xizmat qiladi, bu esa umumiy ravishda jamiyatning farovonligini oshiradi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. “Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag‘batlantirish to‘g‘risida”gi Qonun 1995-yil 25-dekabr;
2. “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risidagi” Respublika qonunlari;
3. Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 4-dekabr 422-sonli “Banklarning kreditlari bo‘yicha qarzdorlik o‘z vaqtida qaytarilmagan taqdirda undiruvni qarzdorning likvidli mol-mulkiga qaratish tartibini tasdiqlash to‘g‘risida” gi qarori;
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2022-yil 21-dekabr kuni “Tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyatini qo‘llab-quvvatlash”ning qo‘shimchachora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni.
5. Norbekov, Fazliddin. (2022). The Necessity of Structural Changes in The Development of the National Economy.